



## FUQAROLARDA HARBIY XIZMATGA QIZIQISH MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Sobirjonov Eldorbek

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada harbiy xizmatga fuqarolarning qiziqish darajasi, motivatsion omillar va bu jarayonga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy hamda ma'naviy jihatlar tahlil qilinadi. Harbiy xizmatning Vatan himoyasidagi ahamiyati, yoshlar ongida milliy g'urur va fuqarolik burchini shakllantirishdagi roli ochib berilgan. Shu bilan birga, harbiy xizmatga bo'lgan ijobiy motivatsiyani kuchaytirishning samarali usullari targ'ibot-tashviqot, ta'lim, ijtimoiy rag'batlantirish va ommaviy axborot vositalarining o'rni ham ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmat, motivatsiya, fuqarolik burchi, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy omillar, psixologik tayyorgarlik, milliy g'urur.

Harbiy xizmatga chaqiruv yoshidagi yigitlarda harbiy xizmatga ijobiy motivatsiyani shakllantirish pedagogik faoliyatning murakkab ko'p omilli jarayonidir. U motivatsiyaning barcha manbalariga kompleks ta'sirni o'z ichiga oladi.

Ushbu jarayonning asosiy vazifalari sifatida: jamoat ahamiyatiga ega motivlarni, ya'ni "fuqarolik burchi" motivini faollashtirish; harbiy xizmatga nisbatan ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy muhitni yaratish; "maqsadni internallashtirish" motivini rivojlantirish; xizmatga kirish yoki rad etish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish, tanlovni ongli mezonlar asosida amalga oshirishga ko'maklashish; yutuq motivini kuchaytirish, ya'ni xizmatdan so'ng olinadigan rag'bat va ijtimoiy qiymatlarni anglatish; shuningdek, emotsional sohada ijobiy-hissiy munosabatni shakllantirish vazifalari belgilab olinadi.

Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish motivatsiya nazariyasining asosiy tamoyillariga tayanishni talab etadi. Ilmda motivatsiyaning bir necha tipologik modellari mavjud. Ularning eng tan olingan variantlaridan biri shaxs faoliyatini ikki yo'nalishda ko'rib chiqadi: birinchisi – faoliyatning o'zi va uni bajarish jarayoni bilan bog'liq motivlar; ikkinchisi – insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlariga asoslangan motivlar. Shu asosda motivlar uch guruhga ajratiladi: (1) faoliyatning o'ziga xos mazmunidan kelib chiqadigan motivlar (yangi bilim, yangilik, intellektual faollik, to'siqlarni yengish); (2) ijtimoiy motivlar (burch, mas'uliyat, o'zini belgilash, o'zini takomillashtirish); (3) tor-shaxsiy motivlar (farovonlik, ijtimoiy maqom, tan olinishi, jazodan qochish) (Rubinshteyn, 1973; Atkinson, 1964).

V.V. Yaroshenko (2012) yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy o'zini belgilash motivatsiyasini tadqiq etib, "keraklik – istak – psixofiziologik imkoniyat" triadasiga asoslangan motivatsion formulani ishlab chiqqan. Unga ko'ra, "qiziqish" motivi faoliyatning emotsional jozibadorligini ifodalaydi, "burch" esa uning obyektiv zarurligini anglash bilan bog'liq, "o'zini kasbiy mos deb baholash" esa shaxsning o'z kuch va imkoniyatlarini



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

faoliyatda eng maqbul tarzda qo'llay olishiga ishonchini ifodalaydi. Ushbu yondashuv harbiy xizmatga motivatsiyani o'rganishda ham samarali qo'llaniladi. Bu pedagogga uch yo'nalishda ishlash imkonini beradi: fuqarolik burchini kuchaytirish, xizmat jarayoniga qiziqishni uyg'otish va o'zini kasbiy jihatdan tayyor deb baholashni oshirish.

L.V.Penkrat (2009) motivlarni ularning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatiga ko'ra guruhlaydi hamda jamoat ahamiyatiga ega motivlarni alohida ajratadi. Bunday yondashuv harbiy xizmatni nafaqat kasbiy faoliyat, balki ijtimoiy ahamiyatli qadriyat sifatida qabul qilishni osonlashtiradi.

Motivatsiyaning dinamik tabiati Kurt Levinning "maydon nazariyasi"da (Lewin, 1951) batafsil tushuntirilgan. Uning fikricha, inson xulqi shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. Levin "hayotiy makon" (life space) tushunchasini kiritgan bo'lib, u ayni damda shaxs faoliyatini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar majmuini ifodalaydi. Unga ko'ra, pedagogik vositalar orqali ijobiy psixologik muhit yaratish shaxs motivatsiyasiga qulay ta'sir ko'rsatuvchi "psixologik maydon"ni shakllantirish motivatsiyani rivojlantirishning eng muhim omilidir.

Motivatsiyaning universal modelini amerikalik olimlar J.Barbuto va R.Scholl (1998) taklif qilgan. Ular besh manbani ajratadi: (1) ichki jarayonlar – faoliyatning o'zidan zavq olish; (2) instrumental motivatsiya – moddiy rag'bat; (3) tashqi "men" konsepsiyasi – boshqalarning tan olishi; (4) ichki "men" konsepsiyasi – o'z standartlariga mos bo'lish istagi; (5) maqsadni internallashtirish – jamiyat qadriyatlarini shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilish. Aynan so'nggi omil pedagogik nuqtayi nazardan eng samaralisi bo'lib, u shaxsga jamiyat qadriyatlarini ichkilashtirish, ya'ni ularni o'z e'tiqodiga aylantirish imkonini beradi. Harbiy xizmatga nisbatan xizmatni davlat va xalq manfaatiga xizmat qilishning yuqori shakli sifatida anglashdir.

Tanlov nazariyasida (Leontiev & Pilipko, 2010) motivatsiya irodaviy va kognitiv komponentlar birligida ko'riladi. Ular tanlovni uch murakkablik darajasida tavsiflaydi: (1) mezonlari aniq tanlov, (2) mezonlari shaxs tomonidan shakllantiriladigan tanlov, (3) ekzistensial tanlov hayotiy muhim qaror, bunda na mezonlar, na alternativalar tayyor emas. Shaxs qanchalik kam axborotga ega bo'lsa, tanlov shunchalik xavfli bo'ladi. Shu sababli pedagogning vazifasi harbiy xizmat bo'yicha aniq, to'liq va qiyoslanadigan axborot berish orqali tanlovni soddalashtirishdir.

B.I. Dodonov (1984) motivlar tuzilmasining mashhur modelini ishlab chiqib, barcha faoliyat turtkilarini to'rtta omilga ajratgan: (1) jarayondan zavq olish, (2) faoliyat natijasidan qoniqish, (3) faoliyat uchun rag'bat (mukofot, lavozim, shuhrat) va (4) sanksiyadan qochish (jazodan qo'rquv). Dodonovning fikricha, dastlabki ikki omil ichki motivatsiyani, so'nggilari esa tashqi ta'sirlarni bildiradi. Atkinson (1964) bu ikki tashqi komponentni "yutuq motivatsiyasi" tarkibiy qismlari deb hisoblagan. Pedagogik jihatdan yutuq motivatsiyasini rivojlantirish eng samarali yo'l hisoblanadi, chunki u shaxsga xizmatdan so'ng erishiladigan ijtimoiy o'sish, o'zini namoyon qilish va professional istiqbolni anglatadi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Zamonaviy psixologiya motivatsiyani emotsiyalar bilan bir butun tizimda ko'radi. S.L.Rubinshteyn (1973) ta'kidlaganidek, emotsiyalar ehtiyojlar va motivlarning subyektiv mavjudlik shaklidir. Shu bois, emotsional komponent motivatsiyaning dinamik mexanizmini tashkil etadi: shaxs harakatga kelishdan avval ehtiyojni his qiladi, his-tuyg'u orqali uni ongda ma'no sifatida qayta ishlaydi va faqat shundan so'ng faoliyatga kirishadi.

Demak, harbiy xizmatga ijobiy motivatsiyani shakllantirish jarayonida pedagogik yondashuv bir nechta nazariy asoslarning sinteziga tayanadi: (1) "burch – qiziqish – moslik" triadasi (Yaroshenko, 2012), (2) "maydon" nazariyasi (Lewin, 1951), (3) "internallashtirilgan maqsadlar" modeli (Barbuto & Scholl, 1998) va (4) "yutuq motivatsiyasi" mexanizmi (Atkinson, 1964; Dodonov, 1984). Shu integratsion asosda qurilgan pedagogik tizim chaqiruv yoshidagi yoshlar ongida xizmatni ijtimoiy mas'uliyat, o'zini rivojlantirish va shaxsiy g'urur manbai sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy sharoitda milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri harbiy xizmatchilarning yuqori motivatsiya darajasidir. Harbiy xizmatga nisbatan ijobiy psixologik munosabat, vatanparvarlik va shaxsiy mas'uliyat hissi shaxsning harbiy burchni bajarishga tayyorligini belgilovchi asosiy determinant hisoblanadi. Shu bois, harbiy xizmatga motivatsiyani shakllantirish muammosi nafaqat milliy, balki global miqyosda dolzarb ilmiy-amaliy masaladir [1].

AQSH qurolli kuchlari XXI asrda sayyoradagi eng kuchli harbiy tizimlardan biridir. Garchi armiyani komplektlash ixtiyoriy asosda amalga oshirilsa-da, unda motivatsiyani shakllantirish tizimi ilmiy asoslangan pedagogik va marketing yondashuvlarga tayanadi. Amerika pedagogik tajribasida harbiy xizmatga motivatsiya quyidagi omillar orqali ifodalanadi:

1. O'zini takomillashtirish shaxsiy o'sish, o'ziga ishonch, jismoniy va axloqiy mustahkamlikni oshirish istagi.
2. Ijtimoiy imtiyozlar xizmatdan keyin olinadigan ijtimoiy kafolatlar, pensiya va tibbiy xizmat imkoniyatlari.
3. Xizmatning o'zi vatanparvarlik burchi, jamoaviy ruh va an'anaviy harbiy qadriyatlarga sodiqlik.
4. Kasbiy rivojlanish xizmat davomida olingan tajriba va malakani fuqarolik hayotida muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyati.
5. Sayohat va tajriba orttirish yangi joylarni ko'rish, yangi ijtimoiy muhitda o'zini sinash, shaxsiy muammolardan "taym-aut" olish.
6. Ta'lim uchun moliyaviy yordam oliy ta'limni armiyaning grant va imtiyozlari orqali moliyalashtirish imkoniyati.

So'nggi o'n yilliklarda moddiy omillar (imtiyoz, ta'lim, ijtimoiy kafolat)ning ahamiyati kuchaygani kuzatilgan. AQSHda harbiy xizmatni targ'ib qilish tizimi quyidagi pedagogik mexanizmlarga tayangan:

- Axborot-targ'ibot faoliyati. O'quvchi va abituriyentlarga armiyadagi o'quv dasturlari, martaba va rivojlanish imkoniyatlarini tanishtirish.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

- Ichki motivlarni faollashtirish. Qurol, forma, jamoaviy ruh, vatan himoyasi kabi ichki hissiy omillarni kuchaytirish.

- Salbiy stereotiplarni yo'qotish. Harbiy xizmatni xavf, stress yoki cheklov emas, balki o'sish maydoni sifatida talqin etish.

- Tengdoshlar orqali ta'sir. Yoshlar o'rtasida xizmat haqidagi ijobiy fikrlar almashinuvini rag'batlantirish.

AQSHda "Harbiy pedagoglar uchun qo'llanma" ishlab chiqilgan bo'lib, u 14-17 yoshli o'quvchilar bilan ishlashni nazarda tutadi. Pedagoglar o'quvchilar ongida armiyani ijobiy obraz sifatida shakllantirish, xizmatni kelajakdagi muvaffaqiyat garovi sifatida ko'rsatishlari lozim. AQSH modelida motivatsiya asosan shaxsiy manfaat (intrinsik motivatsiya) va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi. Shaxs o'zini "o'sayotgan, qadrlanayotgan, jamiyat uchun foydali inson" sifatida his qilishi motivatsiyaning markaziy omilidir [5].

Isroilda harbiy xizmat nafaqat fuqarolik burchi, balki milliy o'zlikni ifodalovchi qadriyat sifatida qaraladi. Yoshlarning motivatsiyasi diniy, axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'un holda shakllanadi. Isroilda 1990-yillarda general Amnon Lipkin-Shahak tomonidan ishlab chiqilgan tizim asosida harbiy xizmatga tayyorgarlik maktab bosqichidan boshlanadi [2]. Harbiy pedagoglar o'quvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lib, xizmatni sharaflil faoliyat sifatida targ'ib etadilar. Sobiq harbiy psixolog Reuven Gall o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 18 yoshli o'smirlarning 90 foizdan ortig'i xizmatni ijobiy baholaydi. So'nggi yillarda individual manfaatlarning ustuvorligi sababli bu ko'rsatkich pasaygan, biroq Isroil hukumati motivatsiyani qayta tiklash bo'yicha maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda. Isroilda quyidagi ta'sir shakllari keng qo'llanadi:

- Harbiy mukofot sohiblari va faxriylar bilan uchrashuvlar.

- Harbiy xizmatda qiyinchiliklarni yenggan nogiron askarlar bilan motivatsion suhbatlar.

- Mahalliy hokimiyat va ta'lim muassasalari hamkorligida "armiyaga tayyorgarlik haftaligi".

Bu tadbirlar yoshlar ongida "xizmat – bu faxr, burch va o'zlikni anglash" degan psixologik iymonni shakllantiradi [3].

Xitoyda harbiy xizmat tizimi ko'ngillilik asosida amalga oshiriladi. Motivatsiya tizimi milliy qadriyatlar va kollektiv madaniyatga asoslanadi. Tadqiqotchi Tsyao Tayyangning ta'kidlashicha, motivatsiyaning asosiy to'rt omili mavjud:

1. Bayroq ramzi. Vatan, sharaf va fidoyilik timsoli sifatida milliy g'ururni uyg'otadi.

2. Qahramonlar namunasi. Har bir askar o'zini avvalgi qahramonlarning davomchisi sifatida ko'radi.

3. Nomoddiy rag'batlar. "Qizil bayroq", "namuna askar", "faxriy bo'linma" kabi e'tirof tizimi.

4. Harbiy madaniyat. Har bir bo'linmaning o'z an'analariga asoslangan psixologik muhitni shakllantirish.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"**

Xitoy tajribasida madaniy an'analar shaxs motivatsiyasining asosiy manbai sifatida ishlaydi. "Madaniyat orqali motivatsiya" modeli askar ongida xizmatni ijtimoiy burchdan tashqari axloqiy va ma'naviy o'zlikning ifodasi sifatida shakllantiradi [4].

Dunyoning yetakchi armiyalarida harbiy xizmatga motivatsiyani shakllantirishning umumiy psixologik-pedagogik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ideologik asos. Xizmatning ma'nosi Vatan, jamiyat va insoniy qadriyatlarga sodiqlikda namoyon bo'ladi.

2. Kollektiv qadriyatlar ustuvorligi. Jamoaviy ruh, birdamlik va "men emas, biz" tamoyili motivatsiyaning barqarorligini ta'minlaydi.

3. Madaniy integratsiya. Harbiy an'analar, milliy ramzlar va tarixiy xotira motivatsion mexanizmga aylantiriladi.

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi. Harbiy pedagogika nafaqat bilim, balki hissiy-axloqiy tayyorgarlikni ham shakllantiradi.

5. Davlat miqyosidagi strategiyalar. Motivatsiyani rivojlantirish uchun hukumat, ta'lim tizimi va OAV o'rtasida kompleks hamkorlik zarur.

Motivatsiyaning markazida shaxsning o'zini jamiyat uchun foydali, himoya qiluvchi va qadrlanadigan inson sifatida his qilishi yotadi. Shu tarzda, harbiy xizmatga nisbatan ijobiy psixologik kayfiyat davlatning barqarorligi va fuqarolik birdamligini mustahkamlovchi asosiy omil sifatida qoraladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bulletin of the Moscow State University of Culture and Arts. – №5 (49). – 2012. – C. 121-126.

2. Lipkin-Shahak A. Military Motivation Programs: Educational Aspect. – Tel-Aviv: Defense Studies, 1995.

3. Gall R. Psychological Foundations of Military Motivation. – Jerusalem: IDF Press, 1989.

4. Qiao Taiyang. Military Pedagogy and Motivation in the People's Liberation Army. – Beijing: Military Education Publishing, 2010.

5. United States Department of Defense. Army Motivation Programs. – Washington DC: DoD Reports, 2011.